

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

YARASHOV SANJAR NORQUL O‘G‘LI

**MAHALLIY JUN TOLALARIDAN “SIRO” USULIDA ARALASH IP
YIGIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Yarashov Sanjar Norqul o‘g‘li Mahalliy jun tolalaridan “Siro” usulida aralash ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish...	3
Ярашов Санжар Норкул ўғли Совершенствование технологии прядения смешанной пряжи из местных шерстяных волокон методом “Siro”	27
Yarashov Sanjar Norqul o‘g‘li Improving the spinning technology for local wool fibers Improvement of the technology of blended yarn spinning from local wool fibers by the “Siro” method.	51
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works	55

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

YARASHOV SANJAR NORQUL O‘G‘LI

**MAHALLIY JUN TOLALARIDAN “SIRO” USULIDA ARALASH IP
YIGIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02- To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5988 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isaqulov Vohid To'laganovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xakimov Sherqul Sherg'oziyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yuldashev Jamshid Kambaralevich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 22 yanvar soat 10⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail:titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (267-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 8-yanvar kuni tarqatildi.
(2026 yil 8 yanvar №267-raqamli reysr bayonnomasi).



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jun tolasi to'qimachilik sanoatida ishlatiladigan asosiy xomashyolardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik sanoati texnologiyalarini rivojlantirish, xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish hozirgi davrning asosiy talablaridan biridir. Dunyo bo'yicha jun tolalaridan kiyim-kechak ishlab chiqarish 16 % ni tashkil qiladi. Avstraliya, Xitoy, AQSh va Yangi Zelandiya kabi davlatlar junni qayta ishlash, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va jun tolalarini jahon bozoriga yetkazib beradigan eng yirik eksportchilardir. Bugungi kunda mahalliy jun tolalaridan oqilona foydalanish va eksport o'rnini bosadigan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi muammolarni hal etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda to'qimachilik sanoati xomashyolaridan samarali foydalanish, aralash tarkibli iplarni yigirish va raqobatbardosh mahsulotlar tayyorlash uchun, resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, mahalliy jun tolalaridan "Siro" usulida aralash ip yigirish texnologiyasini takomillashtirish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, halqali yigirish mashinalarini mahsulot sifat ko'rsatkichlariga mos holatda sozlash kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, tabiiy va kimyoviy xomashyolardan samarali foydalanish hamda energiya va resurslarni tejash, aralash tarkibli ip ishlab chiqarishni amalga oshiradigan energiya va resurstejamkor texnologiyani ishlab chiqarishga, texnologik jarayonning parametrlari va rejimlarini asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda to'qimachilik sohasida mavjud mahalliy xomashyolarni chuqur qayta ishlash, sifatli, raqobatbardosh va jahon talablariga javob beradigan, import o'rnini bosuvchi tayyor mahsulotlar, aralash tarkibli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, ma'lum natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston — 2030" strategiyasida "Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish..." kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, yangi assortimentdagi, iste'mol xususiyatlari yaxshilangan mahalliy jun va poliestar aralash iplarni ishlab chiqish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmonlari, 2021-yil 8-iyuldagi PQ-5178 son "Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya resurstejamkorlik” ustuvor yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni oʻrganilganlik darajasi. Toʻqimachilik sanoatida yuqori sifatli jun mahsulotlari ishlab chiqarishda xomashyoni dastlabki qayta ishlash sohasidagi muammolar, jun tolalari koʻrsatkichlari va ularning ishlab chiqarilgan jun ipning fizik-mexanik xususiyatlariga taʼsirini oʻrganish, ishlab chiqarish tamoyillari, yangi turdagi matolar assortimentini yaratish, tola va mato tuzilishidagi oʻzgarishlarni oldindan aniqlash boʻyicha bir qator xorij olimlari, jumladan Bitus E.I., Sevostyanov P.A., Vinter Y.M., Gusev V.E., Zotikov V. E., Pavlov Y.V., Firsova Y.Y., Daniels H.E., Hemmer P.C., Hansen A., Pradhan S., Karrholm N., Nordhammer G., Friberg O., Hansen Steven M., Jayaraman Sundaresanlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Izlanishlar asosida ushbu olimlar tomonidan muayyan ilmiy hamda amaliy natijalar olishga erishilgan.

Oʻzbekiston Respublikasida jun tolasining sifat koʻrsatkichlarini aniqlash va jun tolasidan raqobatbardosh jun iplarini ishlab chiqarish borasida X.A.Alimova, M.Qulmetov, Jumaniyazov Q.J., Yusupov S., Xakimov Sh.Sh, Q.Gʻ.Gʻofurov, S.L.Matismailov, V.T.Isaqlulov, M.V. Toʻlaganova, N.N. Roʻzibayev, Valieva Z.F. va boshqalar jun tolasini dastlabki ishlash, undan turli assortimentdagi toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish texnika hamda texnologiyalarini takomillashtirish boʻyicha keng koʻlamli tadqiqotlar olib borganlar hamda ular tomonidan toʻqimachilik xomashyosidan samarali foydalanish, uni tozalash, toʻqish, ip va mato mexanikasi, mahsulot texnologik koʻrsatkichlari va ularni yaxshilash, toʻqimachilik mashinalari samaradorligi, ishonchliligi, puxtaligi, ularning ratsional texnologik va konstruktiv parametrlarini aniqlash yoʻnalishlarida muayyan ilmiy va amaliy natijalar olingan.

Olib borilgan ilmiy adabiyot va nashrlar maʼlumotlari sharhi shuni koʻrsatadiki, hozirga qadar mahalliy jun tolalarini dastlabki qayta ishlash hamda undan muayyan assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish boʻyicha koʻplab izlanishlar olib borilganiga qaramasdan, bugungi kunda mahalliy jun va poliester tolalaridan foydalanib aralash ip olish texnologiyasi, hamda aralash jun poliester mahsulotlarining xususiyatlari, ularni mashinalar samaradorligiga taʼsiri kabi masalalar yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoati institutini ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 29/2025 “Halqali yigirish mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish orqali yangi assortimentdagi aralash “Siro” ipi ishlab chiqarish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi halqali yigirish mashinasi choʻzish asbobi konstruksiyasini oʻzgartirish orqali mahalliy jun va poliester tolalaridan “Siro”

usulida o'rta chiziqliy zichlikdagi aralash ip yigirish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mahalliy zot qo'ylardan olinadigan dag'al va yarim dag'al jun tolalarini xossalari o'rganish va ularga kimyoviy tolalarni aralashtirish, hamda ip olish usullarini tadqiq etish;

aralash jun ipi sifatini yaxshilash maqsadida texnologik jarayonni barqarorlashtirish usullari va qurilmalari tahlili asosida, halqali yigirish mashinasi cho'zish asbobi chiqaruvchi juftliklarini ip sifatiga ta'sirini aniqlash;

yigirish mashinasi cho'zish asbobida poliester va jun tolali piliklardan ip olishda ishqalanish kuchlari qonuniyatlarini aniqlash;

halqali yigirish mashinasi uchun takomillashtirilgan cho'zish asbobining ip sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mahalliy jun va poliester tolasi, taralgan pilta, piltalangan pilta, pilik va aralash "Siro" ipi olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida halqali yigirish mashinasi, cho'zish asbobi, rifliyal silindir va ezuvchi valiklar olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ip sifat ko'rsatkichlarini baholashda matematik statistik hisoblash usullaridan, kompyuter dasturiy ta'minotidan, tadqiqot natijalarini olish imkonini beruvchi nazariy-eksperimental usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

halqali yigirish mashinasi cho'zish asbobi chiqaruvchi juftlik elementlari konstruksiyasini ratsionallashtirish orqali mahalliy jun va poliester tolalaridan "Siro" usulida aralash ip yigirish texnologiyasi takomillashtirilgan;

halqali yigirish mashinasi cho'zish juftligida tolalar harakati doimiyligiga va ularning belgilangan miqdorda aralashishiga erishish uchun takomillashtirilgan riflyali silindr konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

halqali yigirish mashinasining chiqaruvchi juftligidagi yangi tavsiya etilayotgan takomillashtirilgan riflyali silindrda tolalarning harakatlanishi va unga ta'sir etayotgan kuchlarni matematik modeli olingan;

halqali yigirish mashinasida sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan ip olish uchun takomillashtirilgan riflyali silindrnin qiyalik burchagi hamda urchuq aylanish tezligining maqbul qiymatlari regression matematik model tenglamalari orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy zot qo'ylardan olinadigan dag'al va yarim dag'al jun tolalarining xossalari o'rganilib, "Siro" usulida kimyoviy tolalarga aralashtirib o'rtacha chiziqliy zichlikdagi aralash iplar olingan;

mahalliy jun tolalaridan xomaki mahsulot ishlab chiqarishda fizik-mexanik xossalari ta'sir etuvchi omillar tahlili orqali mashinaning assortiment va texnologik imkoniyatlari aniqlangan;

mahalliy jun va poliester tolalaridan "Siro" ipi olish uchun halqali yigirish mashinasi ishchi parametrlarini ratsional qiymatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularda standart uslub va vositalaridan foydalanilganligi, olingan natijalarning hozirgacha ma'lum bo'lgan ko'rsatkichlarga mutanosibli, mahalliy jun tolalari yigirish jarayonlari, matematik modellari tahlili natijalarining ko'rib chiqilayotgan fan sohasida olingan natijalarni baholash mezonlariga muvofiqligi hamda nazariy tadqiqotlar natijalarining tajribaviy tadqiqotlar natijalariga mos kelishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy jun va poliester tolasidan o'rtacha chiziqliy zichlikdagi aralash "Siro" ipi ishlab chiqilganligi, ip sifat ko'rsatkichlariga va fizik-mexanik xossalariga cho'zish juftligi chiqaruvchi ezuvchi valik hamda chiqaruvchi rifliyal silindrning ta'sir etish qonuniyatlariga bog'liqligi aniqlanganligi, halqali yigirish mashinasidagi ezuvchi valiklar va chiqaruvchi rifliyal silindrlar nazariy yechimlar asosida takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati fizik-mexanik xossalari yuqori bo'lgan mahalliy jun va poliester piliklaridan "Siro" ipi ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirilganligi, sifat ko'rsatkichlari yuqori 36,40,44 teks bo'lgan, turli tarkibli aralash ip olish texnologiyasi ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Halqali yigirish mashinasida takomillashtirilgan cho'zish asbobini ishlab chiqarish sharoitida qo'llab o'tkazilgan tajriba natijalari asosida:

halqali yigirish mashinasining chiqaruvchi riflyali silindiriga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xuzuridagi intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti ("Yigirish mashinasining riflyali silindiri" № IAP 7720, 2023-y,) olingan. Natijada mahalliy jun va poliester tolali aralash "Siro" ipini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan;

mahalliy jun va poliester tolalaridan yangi assortimentdagi o'rta chiziqliy zichlikdagi "Siro" ip olish takomillashtirilgan texnologiyasi "POLY TEX SIRDARYO" MCHJ va "XIVA GILAM KOMBINATI" MCHJ korxonalarida joriy qilingan. ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 24-oktyabrda № 02/25-2546 sonli ma'lumotnomasi). Natijada takomillashtirilgan cho'zish asbobini qo'llab olingan iplarda solishtirma uzish kuchi bo'yicha ipning mustahkamligi 16,6% ga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta, shu jumladan 7 ta xalqaro, 6 ta Respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama etilgan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, 5 tasi xorijiy va 3 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan 1 ta ixtiroga patenti olingan. Chop etilgan maqolalar dissertatsiyaning asosiy tarkibiga mos keladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 106 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalari belgilangan, uning ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, hamda nazariy jihatdan yoritilgan va olingan natijalarning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etilishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“To'qimachilik sanoatida jun va kimyoviy tolalarning o'rnini va ularni ishlatish istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida Republikamiz va jahonda yetishtirilibayotgan jun tolalaridan foydalanish holati tadqiq etiladi va mavjud adabiyotlar tanqidiy tahlil qilindi. Shu bilan birga, jun va kimyoviy tolalardan foydalanishning bugungi va ertangi istiqboli, Respublikamizda jun tolasini dastlabki ishlash va undan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar tajribasi hamda tadqiqotchilar tomonidan ushbu tolalarining xossalarini tadqiqi asosida ulardan keng turdagi to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish mumkinligi tadqiqoti, shuningdek poliestar va jun tolalaridan aralash ip ishlab chiqarishda tolalarning ipdagi ulushi, ularning mexanik xossalari hamda ip yigirish texnologiyasi kabi omillarning ip sifatiga ta'siri o'rganilgan. Amaldagi yigirish usullari, ularning o'ziga xosligi, halqali yigirish mashinasida “Siro” ipini yigirish texnologiyasi va uning parametrlarining ip sifati va ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri batafsil tahlil etilgan. Xususan, chiqaruvchi silindr riflyalari, cho'zish asboblari va ularning cho'zish quvvatlari ip hosil bo'lish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Riflyalar qiyalik burchagi va ezuvchi valiklarning bikirligi ipning strukturaviy barqarorligi va mexanik xossalarini belgilashda hal qiluvchi omillar sifatida aniqlangan. Ularning kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha qilingan tadqiqot ishlari tahlil etilgan. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiya ishining **“Halqali yigirish mashinasi cho'zish asbobi konstruksiyasini takomillashtirish va uning parametrlarini nazariy asoslash”** deb nomlangan ikkinchi bobiga ko'ra turli xossali tolalar cho'zish asbobi juftliklarida o'ziga xos qonuniyatlar asosida harakatlanadi va cho'zuvchi juftliklar bilan ta'sirlashadi. Halqali yigirish mashinasi cho'zish asbobida turli xossali tolalarning harakatlanishi va chiqaruvchi juftliklarda ip shakllanish jarayonida hosil bo'ladigan pishitish uchburchagini nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.


Turli xossali aralash “Siro” ipining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha manbalarda chiqaruvchi silindir qiyalik burchaklari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. O'tkazilgan tadqiqotlar asosan bir komponentli va agregatlarda aralashtirilgan turli komponentli tolalar uchun mo'ljallangan. Mavjud xomashyodan unumli foydalanish

maqsadida mahaliy jun tolali pilik va poliester piligi uchun mo'ljallangan qiya burchakli rifliyal silindir va elastik qoplamasi ikki qismli har xil bikrlikdagi ezuvchi valik konstruksiyasini yaratishni taqozo etadi.

O'rganilgan muommolar quydagicha yechim topadi. Halqali yigirish mashinasi cho'zish asbobi tarkibiga uchta rifliyal silindr va elastik qoplamali uchta ezuvchi valiklar, prujinali yuklash richagidan iborat. Bunda chiqaruvchi uchunchi juftlik, silindirining rifliyalari qiya qilib bajarilgan va silindrning rifliyal qismi uzunligi bir xil bo'lgan ikki qismga bo'linganligi bilan yechiladi. Bu qismlar riflyalarining qiyalik burchaklari bir-biriga qarama-qarshi va riflyalarning o'rta qismiga yo'nalgan. Riflyalarning qiyalik burchaklari turli xil qilib bajarilgan bo'lib, qiyalik burchaklari piliklarning fizik-mexanik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Tavsiya etilayotgan yangi konstruksiyali chiqaruvchi silindr turli xossalik ikkita parallel piliklarni yetarlicha bir tekis cho'zish va aralashtirish imkonini beradi.


Halqali yigirish mashinasi cho'zish asbobining tuzilishi chizma bilan tushuntiriladi, bu yerda 1-rasm *a*-shaklda cho'zish asbobining umumiy ko'rinishi, *b*-shaklda tavsiya etilayotgan yangi konstruksiyali rifliyal silindrining ko'rinishi, *c*- shaklda ikki xil xarakteristikali tolalar tutamchalarini parallel cho'zish sxemasi keltirilgan.



1-rasm. Qiya burchakli rifliyal silindir

Tavsiya etilayotgan takomillashtirilgan konstruksiyaning afzalligi quyidagicha bo'lib, bunda yigirish mashinasi cho'zish asbobi tarkibiga uchta riflyali silindrlar va elastik qoplamaga ega uchta ezuvchi valiklar, prujinaga ega bo'lgan yuklamali richag kiritilgan, shuningdek chiqaruvchi silindir rifliyalari qiya qilib bajarilgan, bundan tashqari chiqaruvchi juftlik ezuvchi valigining elastik qoplamasini ajratib olish mumkin va uzunligi bo'yicha o'rtasidan bo'lingan ikkita teng qismdan iborat bunda ezuvchi valik birinchi qismining bikrligi ikkinchi qismi bikrligiga nisbatan 30% ga kam.

Poliester va jun tolali piliklar qiya riflyalar ta'sirida ularni o'q bo'yicha cho'zish kuchini tashkil etuvchilari paydo bo'lib, tolalarni o'zaro aralashtirish imkonini beradi. Bunda poliester va jun tolali piliklarni xususiyatlari, ishqalanish kuchlari, deformatsiyalanish xususiyatlari, bikrliklarini ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi.



2-rasm. Cho‘zish asbobi chiqaruvchi juftlik elementlarining o‘zaro ta’sir sxemasi

2-rasm sxemasiga asosan umumiy ishqalanish kuchi;

$$\bar{F}_{um} = \bar{F}_1 + \bar{F}_2 \quad (1)$$

bu yerda: \bar{F}_1 -chiqaruvchi ezuvchi valik va cho‘zilayotgan pilik orasidagi ishqalanish kuchi; \bar{F}_2 - chiqaruvchi riflyali silindr va pilik orasidagi ishqalanish kuchi.

.2-rasm ko‘ra poliester tolalari bo‘lgan pilik va chiqaruvchi ezuvchi valik orasidagi ishqalanish kuchi:

$$\bar{F}_1 = f_1(\Delta_1 C_1 + \Delta_p C_p - g(m_p + m_b)) \quad (2)$$

Jun tolali pilik bilan hosil qilgan ishqalanish kuchi:


$$F'_1 = f'_1(\Delta'_1 C'_1 + \Delta'_p C_p - g(m_p + m_b)) \quad (3)$$

Mos ravishda ushbu piliklarni chiqaruvchi riflyali silindr orasidagi ishqalanish kuchlari:

$$\begin{aligned} F_2 &= f_2[\Delta_2 C_p + g m'_p] \\ F'_2 &= f'_2[\Delta'_2 C_1 + g m'_p] \end{aligned} \quad (4)$$

bu yerda, C_1 , C'_1 , C_p cho‘zilayotgan poliester va jun tolalali piliklar, hamda ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koeffitsientlari; Δ_1 , Δ'_1 , Δ_p , Δ'_p , - poliester va jun piliklari, hamda ezuvchi valik elastik qoplamasi, mos kelgan deformatsiyalari; f_1 , f'_1 , f_2 , f'_2 - poliester va jun piliklari bilan riflyali silindr va ezuvchi valik orasidagi ishqalanish koeffitsientlari; g -erkin tushish tezlanishi, m_p , m_b - ezuvchi valik o‘qi va elastik qoplamasi massalari; m'_p -riflyali silindr massasi; Δ_2 , Δ'_2 - poliester va jun piliklarini riflyali silindr bilan ta’sirlashgandagi deformatsiyasilanishi qiymatlari.

Olingan ifodalardan poliester va jun tolalari bo‘lgan piliklarni cho‘zish asbobida cho‘zish va aralash ip olish jarayonidagi ishqalanish kuchlarini aniqlashimiz mumkin. Bunda piliklarini o‘zaro aralashishi riflyali silindr riflyalari qiyalik burchaklarini qiymatlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. 3-rasmda poliester va jun piliklarini qiya riflyali sirt bilan hosil qilgan ishqalanish kuchlarini aniqlash sxemasi keltirilgan.



3 – Chiqaruvchi riflyali silindr va piliklar orasidagi ishqalanish kuchlarini aniqlash sxemasi.

Ishqalanish kuchlarini aniqlash 3-rasmga asosan:

$$\overline{F_2} = \overline{F_{2x}} + \overline{F_{2y}}; \overline{F'_2} = \overline{F'_{2x}} + \overline{F'_{2y}} \quad (5)$$

Olingan vektor (5) tenglamalarga mos ravishda, ishqalanish kuchlari tashkil etuvchilari:

$$F_{2x} = F_2 \cos \alpha_1; F_{2y} = F_2 \sin \alpha_1;$$

$$F'_{2x} = F'_2 \cos \alpha_2; F'_{2y} = F'_2 \sin \alpha_2 \quad (6)$$


bu yerda, α_1, α_2 – riflyali silindr har ikkala qismlari riflyalari qiyalik burchaklari.

Olingan ifodalarda asosiy noma'lum parametrlarga ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koeffitsenti hamda riflyalarni qiyalik burchaklarini qiymatlari kiradi. "Siro" ipda poliester va jun tolalari xususiyatlari farqi juda katta bo'lmaganligi inobatga olinganda $\alpha_1 = \alpha_2$ deb qaralsa, 6- ifodadan ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koeffitsiyentini hisoblash formulasini hosil qilamiz:

$$C_1 = \frac{gm'_p(f'_2 - f_2) \cos \alpha}{R_2 \cos \alpha [f_2(1 - \cos \varphi_2) - f'_2(1 - \cos \varphi'_2)]} \quad (7)$$

Demak olingan (7) ifodani tahliliga ko'ra poliester va jun tolali piliklarni cho'zish (aralashtirish) ni bir xil zichlikda olish uchun ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koeffitsentini kerakli qiymatlarini aniqlash mumkin bo'ladi. Bunda C_1 qiymatlari piliklarni siqish burchagi, ishqalanish koeffitsientlari hamda valik massasiga bog'liqlik grafiklarini ko'rib tavsiya qiymatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Ushbu jarayonda poliester va jun tolalari xossalari farqi hisobiga ezuvchi valik elastik qoplamasi deformatsiyalari turlicha bo'lishi, hamda cho'zish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun poliester va jun tolalari xossalari ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrligi o'zgarishi ta'sirini o'rganish, muhim hisoblanadi. Jumladan 4-rasmda cho'zish asbobi chiqaruvchi juftligida poliester va jun tolali piliklarni cho'zishda ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrligi o'zgarishini uni ezilish (deformatsiyanish) burchagiga bo'g'liqlik grafiglari keltirilgan.



4-rasm. Cho‘zish asbobi chiqaruvchi juftligida poliestr va jun tolali piliklarni cho‘zishda ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrligi o‘zgarishi

1,2,3- $C_1=f(\varphi_2)$; 4,5,6- $C_1=f(\varphi_2')$
 1,4- $R_2=16 \cdot 10^{-3}\text{m}$; 2,5- $R_2=14 \cdot 10^{-3}\text{m}$; 3,6-
 $R_2=12 \cdot 10^{-3}\text{m}$

a-rasmda cho‘zish asbobi chiqaruvchi juftligida poliestr va jun tolali piliklarni cho‘zishda ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrligi o‘zgarishini uni ezish(deformatsiyalanish) burchagiga bog‘liqlik grafiklari

1 – $R_2 = 16 \cdot 10^{-3}\text{m}$; 2 – $R_2 = 14 \cdot 10^{-3}\text{m}$; 3 – $R_2 = 12 \cdot 10^{-3}\text{m}$.

b-rasmda cho‘zish asbobi ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koeffitsiyenti o‘zgarishini poliestr va jun tolalari bilan qiya rifliyal silindr orasidagi ishqalanish koeffitsiyentlari nisbatiga bog‘liqlik grafiklari


Mahalliy jun va poliester tolalaridan “Siro” usulida ip olish quydagicha amalga oshiriladi, bunda poliester va jun tolali piliklar bir vaqtning o‘zida alohida-alohida o‘zaro parallel xolatda halqali yigirish mashinasi cho‘zish asbobiga yo‘naltiriladi va chiqaruvchi juftlikdan o‘tib tutamcha xolatida pishitish uchburchagida qo‘shilib aralash ip xosil qiladi. Halqali yigirish mashinasi cho‘zish asbobi chiqaruvchi juftlikdan chiqayotgan tutamcha tolali oqimdan iborat bo‘lib ular pishitish uchburchagini tashkil qiladi. Pishitish uchburchagidagi tolalar oqimini tarangligi va ularni harakat yo‘nalishini, boshqarish uchun ularga ta’sir etuvchi kuchlarni o‘rganish zarur. Mahalliy jun va poliester tolalaridan “Siro” ipi ishlab chiqarishda tolalar xarakatlangandagi tarangligini pishitish uchburchaklarini ikkiga ajratib, jun chap tomondagi va o‘ng tomondagi poliester tolalari uchun o‘rganamiz va 5-rasmda keltirilgan.

Bu yerda a) pishitish uchburchagini umumiy ko‘rinishi, b) pishitish uchburchagi bo‘yicha chap tamonidagi tolalarning joylashishi

5-rasmda keltirilgan sxemada pishitish uchburchagi yon tomonlari o‘zaro teng ekanligini xisobga olsak quydagi ifodaga ega bo‘lamiz ya’ni:

$$(O_1E = O_1E_1 \text{ bo‘lsa } T_1 = T_2 = T_0/2 \cos \alpha \text{ ga teng bo‘ladi}) \quad (1)$$

Pishitish uchburchakdagi markaziy o‘qidan chap tomonidagi tolalarda hosil bo‘ladigan taranglikni P_i ($i=1,2,\dots,n$), markaziy o‘qidan o‘ng tomonidagi tolalar tarangligini P_j ($j=1,2,\dots,m$), bilan belgilaymiz.



5-rasm. Mahalliy jun va poliester tolalaridan “Siro” ipi shakllanishida tolalarning tarangligini aniqlash sxemasi

Markaziy o‘q bo‘ylab yo‘nalgan tarangligini T bilan belgilaymiz uchburchakning asos tomonini b , bilan balandligini $AYE=h$ markaziy burchagini 2α har bir tolaning AYE vertikal chiziq bilan tashkil qilgan burchaklarni, chapdagi i nomerli tola uchun, x_i o‘ngdagi j -tola uchun x_j bilan chap tomondagi tolalar umumiy sonini n , o‘ng tomondagi m bilan belgilaymiz. Pishitish uchburchagining har ikkala tomonidagi tolalarning joylashish holatini aniqlashimiz uchun bizga bir tomondagi tolalarning joylashishini o‘rganishimiz yetarli bo‘ladi. Pishitish uchburchagi bo‘yicha chap tomonidagi tolalarning joylashish sxemasi 5 b-rasmda keltirilgan.

Bu sxemadagi har bir tolalardagi tarangligini quydagi formulalar yordamida aniqlaymiz.


$$P_i = \frac{ES_{jun}}{\cos x_j} + \frac{T - \frac{ES_{jun}}{2} \left[\sum_{i=1}^n (1+tg^2 x_i) tg^2 x_i + \sum_{j=1}^m (1+tg^2 x_j) tg^2 x_j \right]}{ES_{jun} \cos x_i \left[1 + \sum_{i=1}^n (1+tg^2 x_i)^2 + \sum_{j=1}^m (1+tg^2 x_j)^2 \right]} - ES_{jun} \quad (8)$$

Bu yerda ES_{jun} - jun tolasining bikrligi, E tolaning yung moduli.

Yuqoridagi qonuniyatdan kelib chiqib poliester tolalarining pishitish uchburchagidagi tarangligi quydagicha aniqlashimiz mumkin.


$$P_j = \frac{ES_{poliester}}{\cos x_j} + \frac{T - \frac{ES_{poliester}}{2} \left[\sum_{i=1}^n (1+tg^2 x_i) tg^2 x_i + \sum_{j=1}^m (1+tg^2 x_j) tg^2 x_j \right]}{ES_{poliester} \cos x_j \left[1 + \sum_{i=1}^n (1+tg^2 x_i)^2 + \sum_{j=1}^m (1+tg^2 x_j)^2 \right]} - ES_{poliester} \quad (9)$$

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra hosil bo‘lgan pishitish uchburchagida tolalar harakatiga chiqaruvchi silindrda riflya qadami va qiyalik burchaklarining ta’sirini aniqlash lozim bo‘ladi. Masalani sonli yechimini amalga oshirish natijasida silindir rifliyalari qiyalik burchaklaridan sistema parametrlariga bog‘liqlik grafiklari qurildi, ularni tahlilari asosida tegishli parametrlarning tavsiya qiymatlari aniqlandi. Jumladan 6-rasmda cho‘zish asbobida poliester va jun tolali piliklarni cho‘zishda chiqaruvchi silindir rifliyalari oraliq qadamlari bo‘yicha qiyalik burchaklarining o‘zgarish qonuniyatlarini rifliyalari silindir aylanish chastotasiga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.



1,2 – $\alpha_1 = f(n_2)$; 3,4 – $\alpha_2 = f(n_2)$
 1,3 – $d_2 = 14,5 \cdot 10^{-3} \text{ m}$; 2,4 – $d_2 = 12,5 \cdot 10^{-3} \text{ m}$.

6-rasm. Cho‘zish asbobida poliester va jun tolali piliklarni cho‘zishda chiqaruvchi silindir rifliyalari oraliq qadamlari bo‘yicha qiyalik burchaklarining o‘zgarish qonuniyatlarini rifliyal silindir aylanish chastotasiga bog‘liqlik grafiklari



1 – $\alpha_1 = f(C_1)$; 2 – $\alpha_2 = f(C_2)$

7-rasm. Tavsiya etilgan aralash tolali piliklarni cho‘zish asbobi chiqaruvchi silindir rifliya oraliq qadamlari bo‘yicha qiyalik burchaklari o‘zgarishini ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koefitsiyentlariga bog‘liqlik grafiklari.

Ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrligini poliester va jun tolalarini cho‘zish va yetarli darajada aralashtirish, ya’ni o‘q bo‘yicha siljitish qiymatlariga, jumladan α_1 va α_2 ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladi. 7-rasmda tavsiya etilgan aralash tolali piliklarni cho‘zish asbobi chiqaruvchi silindir rifliya oraliq qadamlari bo‘yicha qiyalik burchaklari o‘zgarishini ezuvchi valik elastik qoplamasi bikrlilik koefitsiyentlariga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Halqali yigirish mashinasida mahalliy jun va poliester tolalaridan aralash ip yigirish texnologiyasining sinov tajribalari**” deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotni o‘tkazish metodikasi, mahalliy jun va poliester tolalaridan aralash ip yigirishda xomashyo va xomaki mahsulotlar sifati tadqiq etilgan va ishlab chiqarish sharoitida xomaki mahsulotlarning fizik-mexanik xossalarini baholash bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar yoritilgan.


Mamlakatimiz olimlari tomonidan Respublikamizda yetishtirilayotgan jun tolalarining fizik-mexanik xossalari mintaqamizni hududlarga ajratgan holda o‘rganib chiqilgan. Tajriba ishlarida O‘zbekistondagi jun tolasining holati haqida to‘liqroq ma’lumot berish maqsadida Respublikamizning besh hududidan jun tolalaridan namunalar olinib AQSH davlatining Montana shtatidagi Montana Davlat univesiteti qoshidagi Montana jun laboratoriyasiga yuborildi va olingan natijalar 1-jadvalda jamlandi.

Tajriba ishimizda mahalliy jun tolalaridan to‘qimachilik sanoatida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadida, ularning xossa ko‘rsatkichlarini tahlil qilishimiz kerak, 1-jadval ma’lumotlari asosida jun tolalarining o‘rtacha diametri AFD, diametri 30 mikrondan kam bo‘lgan tolalar ulushi CF% (kamfort factor) ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘liqlik gistogramma ko‘rinishida ifodalandi.

Jun tolalarining fizik xossalari


Ajratilgan hududlar	Tolaning o'rtacha diametri (AFD)Mikron	Standart og'ish (SD)	Variatsiya koyeffitsiyenti (CV%)	Diametri 30 mikrondan kam bo'lgan tolalar ulushi (CF%)	Shtapel uzunligi (SL)mm
Jizzax	27,9	9,8	35,1	66,8	135
Vodiy	33,9	14,2	41,9	51,5	90
Navoiy	23	5,8	21,7	80,9	85
Qoraqalpog'iston	37	14,6	39,4	39,6	165
Buxoro	38,6	15,5	40,1	39,8	80
Avstraliya (Merinos)	21	4,3	18,7	97,1	80

Bu yerda ordinata o'qiga diametri 30 mikrondan kam bo'lgan tolalar ulushi qiymatlari hamda, absissalar o'qiga tolaning o'rtacha diametri ko'rsatkichlari joylashtiriladi 8-rasm.



8-rasm. Jun tolalarining ingichkaligi va CF% (kamfort factor) koyeffitsiyenti orasidagi bog'liqlik

Jun tolalarining CF% (kamfort factor) ko'rsatkichi qancha yuqori bo'lsa, undan tayyorlangan matolarning dag'allik xususiyati shuncha kam bo'ladi. CF(kamfort factor) ko'rsatkichi bu assosan diametri 30 mikrondan kam bo'lgan tolalar ulushi miqdorini anglatadi. 8-rasmdagi gistogrammada diametri 30 mikrondan kam bo'lgan tolalar ulushi Navoiy viloyatida yetishtirilgan jun tolalarida eng yuqori 80,9 %, Jizzax viloyatida 66,8 % ekanligini ko'rishimiz mumkin. Mahalliy jun tolalarining yigiriluvchanlik qobiliyatini aniqlash maqsadida tajriba ishlari olib borildi. Tajriba ishida jun tolalarining ingichkaligi va ko'ndalang kesimi Respublika virusalogiya markazida mavjud bo'lgan zamonaviy SEM ALPHA elektron mikroskopi yordamida aniqlandi 9-rasm.




a)

b)

c)

9-rasm. Jun tolalarining morfologik tuzilishi. a) asosiy qism; b) ikkilamchi qism; c) chekka qism.

Ilmiy izlanishlar natijasida olingan ko'rsatkichlarni tahlil etish qulay bo'lishi uchun qiymatlarni gistogramma ko'rinishiga keltiramiz 10-rasm.



10-rasm. Turli zonalarda joylashgan jun tolalarining fizik-geometrik ko'rsatkichlari

Tajriba natijalaridan ko'rinadiki jun tolalarining qo'y tanasida joylashuvi bo'yicha eng sifatli va qimmatlisi 1-yon (biqin) va 3-oldi oyoq (kurak) qismlaridagi tolalar ekanligi aniqlandi. Bunga sabab bu qismning qalinligi, kvadratik og'ish va variatsiya koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlari qolgan qismlardan kichikligidir. Jun tolalarining diametri, kvadratik og'ishi va variatsiya koeffitsiyenti qanchalik kam qiymatga ega bo'lsa shuncha sifatli va pishiq bo'ladi. Bel qismidagi jun tolalari ham ingichka va uzun, ammo yog'ingarchilik ta'sirida biroz zaiflashgan va o'simlik qoldiq aralashmalari bilan ifloslangan bo'ladi. Bo'yindagi jun texnologik qiymati bo'yicha oraliq o'rinda turadi, odatda u o'simlik aralashmalari bilan ko'proq ifloslanadi. Son va dumg'aza zonalaridan olingan jun ancha dag'al va ifloslangan bo'ladi. Qorinining pastki qismidagi jun zaif, tola qatlamining zichligi kam va ko'p ifloslanganligi tufayli sifati past hisoblanadi.

Tadqiqot rejasiga asosan tayyorlangan xomaki mahsulotlar: taralgan pilta, piltalangan pilta va piliklarning xossa ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish laboratoriyasining "Uster tester 5" asbobida aniqlandi. Tekshirish natijalari 2, va 3 -jadvallarda keltirilgan.

2-jadval

Jun tolali pilikning xossa ko'rsatkichlari

№	Xomaki mahsulot nomi	Chiziqliy zichligi (teks)	Kesim bo'yicha notekislik			Pilik notekisligi (massa bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti. (ichki notekislik))		
			U_m	C_m	C_m/U_m	CV_m	$CV_m 1m$	$CV_m 3m$
1	Tajriba piligi	400	4,96	5,08	1,024	1,92	1,39	2,94
2	Korxona piligi	400	4,54	5,1	1,12	1.95	1.41	2,96-

3- jadval

Poliester tolali pilikning xossa ko'rsatkichlari

№	Xomaki mahsulot nomi	Chiziqliy zichligi (teks)	Kesim bo'yicha notekislik			Pilik notekisligi (massa bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti. (ichki notekislik))		
			U_m	C_m	C_m/U_m	CV_m	$CV_m 1m$	$CV_m 3m$
1	Tajriba piligi	600	2,03	1,092	0,537	0,96	0,41	-
2	Korxona piligi	600	2,056	1,091	0,530	0,964	0,43	-

TTYSI "Ipak va yigirish texnologiyasi" kafedrasida olingan piltalangan I-II o'tim piltalar va pilik tolali xomaki mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini "POLY TEX SIRDARYO" MCHJ xususiy karxonasida ishlab chiqarilgan pilta va pilik xomaki mahsulotlari bilan solishtirilgan holda taqqoslandi.

Dissertatsiyaning **"Ishlab chiqarish sharoitida mahalliy jun tolalaridan "Siro" usulida aralash ip yigirish"** deb nomlangan to'rtinchi bobida to'la omilli tajriba yordamida ip sifatiga ta'sirining ahamiyatini baholash va takomillashtirilgan konstruksiyadagi cho'zish asbobini ishlatishda halqali yigirish mashinasining shaylash parametrlarini ratsionallashtirish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar hamda takomillashtirilgan cho'zish asbobini ishlab chiqarish sharoitida sinov tadqiqoti, ip sifat ko'rsatkichlarini qiyosiy baholash, ipning tukdorligini baholash va takomillashtirilgan cho'zish asbobini qo'llashning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilgan.

Tajriba rejasiga asosan halqali yigirish mashinasi texnologik parametrlarini o'zgartirish hisobiga, tutamchani cho'zish kattaligi, buramlar soni hamda o'rash mexanizmini jun va poliester aralash ipi ishlab chiqarish uchun moslashtirildi.

Choʻzish asbobining chiqaruvchi juftligi silindir rifliylarining qiyalik burchagi oʻzgartirilib, chiqaruvchi ezuvchi valigini jun va poliester tolali pilikga moʻljallangan elastik qoplamali ikki qismli, har xil bikrlikdagi ezuvchi valikga almashtirildi. Choʻzish asbobining shaylash parametrlarini optimallashtirish masalasini yechish uchun toʻla omilli tajriba TOT 3²-9 tajriba oʻtkazildi va kiruvchi omillarning oʻzgarish sathlari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Omllarning oʻzgarish sathlari

Omllar	Sathlar qiymati			Variatsiya oraligʻi
	-1	0	+1	
X ₁ -Urchuq aylanishlar soni, min ⁻¹	12500	13500	14500	1000
X ₂ -Ezuvchi valik bikrligi, shora	45-55	55-65	65-75	10
X ₃ -Chiqaruvchi silindir rifliya qiyalik burchaklarining nisbatlari α_2/α_1	1.5	1.6	1.7	0.1

Har bir ratsionallashtirish parametri uchun regression tenglama olindi.

Dispersiya bir jinsliligi Koxren mezonini yordamida, regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatiga molikligi Student mezonini yordamida, regression tenglama adekvatligi esa Fisher mezonini yordamida aniqlandi.

Ahamiyatsiz boʻlgan koeffitsiyentlarni olib tashlagandan soʻng regressiya tenglamalari quyidagicha boʻldi:

Ipning solishtirma uzish kuchi, sN/teks

Ipning solishtirma uzish kuchi (sN/teks) ning regression tenglamasi quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$y_1 = 15,01 + 0,6969x_1 + 1,325x_2 + 0,325x_3 - 0,3x_1x_2 - 0,54x_1x_3 - 0,378x_2x_3 - 0,1774x_2^2 \quad (10)$$


Ipning noteksligi boʻyicha olingan regressiya tenglamasi. %

Ipning chiziqliy zichligi boʻyicha noteksligi (CV, %) regression tenglamasi quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$y_2 = 17,01 - 0,429x_1 - 1,021x_2 + 0,087x_3 - 0,178x_1x_2 + 0,527x_1x_3 + 0,145x_2x_3 - 0,194x_2^2 \quad (11)$$


Tenglamalarning adekvatligiga ishonch hosil qilinib, urchuq aylanish chastotasi, ezuvchi valik bikirligi va chiqaruvchi silindir rifliylari qiyalik burchagi kabi koʻrsatkichlar olinayotgan ipning buramlar soniga, pishiqligiga, ravonligi va uzayishiga taʼsir qiladi degan xulosaga kelindi.

Olingan regressiya tenglamalarining yechimlari kompyuter Mathcad dasturidan foydalanib, ularning izochiziqlari tahlil qilindi (11-12-rasm).



11-rasm. Ipning solishtirma uzish kuchi izochiziqlari

